O‘ZBEK SHEVA VA DIALEKTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO SHEVALARI MISOLIDA)

Nilufar Buranova

Setora Muxammadiyeva

Shaxnoza Berdiyeva

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich magistrantlari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lgan dialekt va shevalarning xalq madaniyatini anglashdagi o‘rni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida aks etadi. Shevalarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari, xalqning urf-odatlari, an’analari, kasbi hamda kundalik turmush tarzi bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy nutq birliklarini asrash, ularni ilmiy o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Abstract. This article examines the role of local varieties of the Uzbek language-specifically its dialects and subdialects-in understanding folk culture, using the Qashqadaryo and Surxondaryo regions as case studies. It analyzes the phonetic, lexical, and grammatical features of these dialects, exploring their connections to the customs, traditions, occupations, and daily lifestyles of the people. Furthermore, the article addresses the importance of preserving these local linguistic forms, conducting scientific research on them, and ensuring their transmission to future generations.

Аннотация. В статье рассматривается роль локальных разновидностей узбекского языка - в частности, его диалектов и говоров - в понимании народной культуры на примере Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей. Анализируются фонетические, лексические и грамматические особенности этих диалектов, а также их связь с обычаями, традициями, видами трудовой деятельности и повседневным укладом жизни населения. Кроме того, в статье подчеркивается

важность сохранения данных локальных языковых форм, проведения научных исследований в этой области и обеспечения их передачи будущим поколениям.

Kalit so‘zlar: dialekt, sheva, lahja, xalq madaniyati, Qashqadaryo, Surxondaryo, milliy qadriyatlar, , og‘zaki ijod, til merosi.

Keywords: dialect, sub-dialect, vernacular, folk culture, Qashqadaryo, Surxondaryo, national values, oral tradition, linguistic heritage.

Ключевые слова: диалект, говор, просторечие, народная культура, Кашкадарья, Сурхандарья, национальные ценности, устная традиция, языковое наследие.

Kirish. Til - madaniyatning ko‘zgusi bolib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy ro‘lini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an’ana, urf-odatlari, adog‘i, qadriyatlar yig‘indisi, dunyo qarashi ham aks etadi[1].

Til - madaniyat xazinasi, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, forklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og‘zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi[2]. “Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bolishiga yordam beradi. Til uning sohibrarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Xalqning o‘ziga xos asosiy xususiyati bo‘lgan tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish mumkin. Tilga ichki jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo‘lsa, “tashqi” jihatdan yondashilganda xalqning tashqi farqlarini ko‘rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funksiyani o‘zida dialektik birlashtirgan til bir tomondan xalqning o‘z-o‘zini saqlash vositasi, ikkinchi tomondan uni “o‘ziniki” va “begonaga” ajratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilining hududiy xilma-xilligini o‘rganishda dialekt va shevalar alohida ahamiyatga ega. Chunki ular nafaqat kishilarning o‘zaro muloqot vositasi, balki muayyan

[1] Sh. Usmonova. Lingvokulturologiya (Darslik) - T.2019

[2] Robins R. General Linguistics._An Introductory survey. -London: Routledge,Bepeqarzn -p. 27.

hudud aholisining tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy hayotini aks ettiruvchi til hodisalaridir. Ayniqsa, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shevalari o‘ziga xos talaffuz xususiyatlari, mahalliy so‘zlari, iboralari, maqollari va etnografik birliklari bilan o‘zbek tilining boyligini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Professor Yoqub Saidovning ta’kidlashicha, dialekt shevaga nisbatan keng ma’noda qo‘llaniladi. Adabiy tildan o‘zining ba‘zi bir xususiyatlari (chunonchi, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq bo‘lagi dialekt deb yuritiladi. U tilning eng kichik bo‘lagi sanalgan shevalarning bir qanchasini o‘z ichiga oladi, ya‘ni u shevalar yig‘ndisidan tashkil topadi. Masalan, qirq, saroy, jo‘sh, nayman, qo‘nirot, qipchoq qoraqalpoq, baxmal, ming, burgut kabi shevalar birlashib, o‘zbek tilining qipchoq dialektini tashkil qiladi. Lekin ba‘zan dialekt atamasining tor ma’noda, ko‘pincha sheva ma’nosida qo‘llanilishi ham uchraydi: Buxoro dialekti kabi. Sheva atamasini esa, “Sheva” atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish kabi ma’nolarni ifodalab, biror bir tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismidir. Lahja (arabcha so‘z bo‘lib, ifoda, so‘z, sheva, ovoz kabi ma’nolarni ifodalaydi) shu xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yiindisidir. Masalan, o‘g‘uz lahjasi, qipchoq lahjasi kabi. Mazkur atama ba’zan tor ma’noda, ya’ni sheva ma’nosida qo‘llanilishi ham uchraydi. Masalan, Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha so‘z kabi[3]. Qipchoq shevalarining adabiy til lug`atini, xususan, uning chorvachilik atamalari tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, [qirqim], [o‘tov], [to‘l], [sarimoy], [chakki], [chalop], [uloq], [sovliq] kabi umumiy va chorvachilik atamalari, [quyruq], [bovur], [patir], [tovoq], [kulchatoy], [lochira] singari pazandachilik atamalari adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan. Demak, o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida tayanch manba bo‘lgan tarixiy an’ana bilan bir qatorda barcha lahja va shevalarning o‘ziga xos o‘rni bor

[3] O’zbek dialektologiyasi : o’quv qo’llanma / Y. Saidov. - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2022. - 74 b.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning qadimiy tarixiy-madaniy hududlaridan biri bo‘lib, uning aholisi boy urf-odatlari, xalq og‘zaki ijodi, hunarmandchiligi va o‘ziga xos nutq madaniyati bilan ajralib turadi. Viloyatning Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Chiroqchi, Koson, G‘uzor va boshqa hududlarida qo‘llanadigan shevalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qashqadaryo shevalarining madaniy ahamiyati, avvalo, xalqning kundalik hayotini ifodalovchi so‘z va iboralarda ko‘rinadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, mehmondo‘stlik va oilaviy munosabatlarga oid mahalliy atamalar xalqning turmush tajribasini aks ettiradi.Surxondaryo viloyati ham o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosiga ega hududlardan biridir. Viloyatning geografik joylashuvi, tarixiy aloqalari va etnomadaniy jarayonlari mahalliy nutqning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Termiz, Denov, Sherobod, Boysun, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Oltinsoy va boshqa hududlarda qo‘llanadigan shevalar o‘zining talaffuz, lug‘aviy tarkib va grammatik xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin. Ayrim hududlarda qipchoq lahjasiga xos belgilar, boshqa hududlarda esa qarluq lahjasi bilan bog‘liq xususiyatlar yoki o‘tish hodisalari uchraydi. Shu sababli Surxondaryo shevalarini yagona va bir xil nutq shakli sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Surxondaryo shevalarining xalq madaniyatini anglashdagi ahamiyati, ayniqsa, marosimlar, xalq og‘zaki ijodi va kundalik turmushga oid leksik birliklarda yaqqol ko‘rinadi. Viloyatda keng tarqalgan xalq qo‘shiqlari, dostonchilik an’analari, baxshichilik, maqol va matallar mahalliy nutqning badiiy imkoniyatlarini namoyon etadi.Baxshichilik an’anasi sheva va madaniyat munosabatini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Dostonlarda qo‘llanadigan mahalliy so‘zlar, murojaat shakllari, iboralar va talaffuz xususiyatlari asarning tabiiyligini ta’minlaydi. Ular orqali xalqning tarixiy tasavvurlari, qahramonlik haqidagi qarashlari, orzu-umidlari va ma’naviy qadriyatlari ifodalanadi.

Surxondaryo hududidagi oilaviy marosimlar, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari va jamoaviy mehnatga oid nutq birliklari ham xalqning ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR. Quyida ayrim kundalik so‘zlarning shevada aytilishi va adabiy tildagi muqobili ko‘rsatiladi:

Shevada	**Adabiy tilda**
Qalgancha	Arg‘umchoq
Baxmal	Duxoba
Mo‘rcha	Chumoli
Zombir	Ari
Mayak	Tuxum
Giddi	Chet qismi
Satil	Chelak
Jurak	Yurak
Sach	Soch
Musichi	Musicha
Jo‘l	Yo‘l
Jerjongg‘oq	Yeryong‘oq
Jayma	Yoyma
Jirtiq	Yirtiq
Tamam bo‘ldi	O‘ldi
Uzildi	O‘ldi
Qaza qildi	O‘ldi
Nobud bo‘ldi	O‘ldi
Dezira	Guruch
Ichcha	Ichsa

Surxondaryo va Qashqadaryoda baxshichilik maktablari rivojlangan va unda qadimiy shevalar saqlanib qolgan. Tadqiqot davomida ba’zi so‘zlar aytilishi yozib olindi va adabiy til bilan taqqoslandi.

Shevaga xos	Adabiy tilga xos
Qoqi-so‘qi	Qand-qurs
Tilov qilmoq	Biror ishni xudodan yolvorib so‘rash
Peshanasi do‘ng bo‘lar	Martabasi ulug‘ bo‘lmoq
Ikovuz oytmoq	Kamtarlik ma’nosida: termalardan oz-ozdan aytmoq
Hoyore	Yoronlaree
Ollobergan	Allah bergan
Ot moydanda jelipti	Ot
Katman olmas	Ishlamaydigan kishiga nisbatan
Odashib kevedik	Adashib qolmoq ma’nosida
Berman qora	Bu tomonga qara
Qo‘rg‘on	Uy
Bir moydon	Oz fursat
Mincha uldi	Buncha bo‘ldi
Soparag‘a tuzuk	Ishlarni bir joyga jamlab aytish, ya’ni barcha ishlar
Gapdi-gapga qo‘sh	Jim bo‘l
Baxshining jo‘shi	Baxshilarning ovozi
Tyur	Bo‘lak

Boshini biriktirmoq	Ko ‘p kishilarni bir joyga jamlamoq
Qovatim	Yonim
Chechilsin	Yechilsin ma’nosida

MUHOKAMA.

Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarini o‘rganish natijalari hududiy nutq xususiyatlari xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Har ikki viloyat shevalarida kundalik hayot, dehqonchilik, chorvachilik, qarindoshlik munosabatlari, oilaviy marosimlar va xalq og‘zaki ijodiga oid til birliklari muhim o‘rin tutadi. Bu birliklar orqali muayyan hudud aholisining dunyoqarashi, an’analari va madaniy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarining o‘ziga xosligi: Mazkur hududlar shevalarining o‘xshash jihatlari ularning geografik yaqinligi va tarixiy-madaniy aloqalari bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, viloyatlarning turli tuman va qishloqlarida talaffuz, so‘z qo‘llash hamda grammatik shakllarda farqlar kuzatiladi. Bunday farqlarni o‘rganish jarayonida har bir hududning ichki sheva xilma-xilligiga e’tibor qaratish zarur. Chunki bir viloyatga xos deb qaraladigan til hodisasi uning barcha hududlarida bir xil darajada uchramasligi mumkin. Shevalarning xalq madaniyati bilan bog‘liqligi, ayniqsa, mahalliy so‘zlar, iboralar, maqollar, marosim nomlari va xalq qo‘shiqlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, to‘y marosimlari, mehmon kutish, hashar va oilaviy munosabatlarga oid til birliklari xalqning ijtimoiy hayoti hamda qadriyatlarini aks ettiradi. Surxondaryo hududidagi baxshichilik va dostonchilik an’analari ham mahalliy nutq xususiyatlarining badiiy ijoddagi o‘rnini ko‘rsatadi. Qashqadaryo hududidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari ham shevalarning madaniy merosni saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Shevalarni o‘rganishdagi muammolar: Bugungi kunda shevalarni o‘rganishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, keksa avlod vakillari nutqida saqlanib qolgan ayrim so‘z va iboralarning yoshlar nutqida kamroq qo‘llanilishi, mahalliy leksik birliklarning

yozma shaklda yetarlicha qayd etilmagani hamda hududlar bo‘yicha tizimli materiallarning cheklanganligi shular jumlasidandir. Shuningdek, ayrim sheva birliklarining ma’nosi va qo‘llanish doirasi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lmaslik ularni ilmiy tahlil qilishni murakkablashtiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun Qashqadaryo va Surxondaryoning turli hududlarida dialektologik kuzatishlar olib borish, mahalliy aholi bilan suhbatlar tashkil etish, shevaga xos so‘zlarni audio va video shaklida qayd etish maqsadga muvofiq. To‘plangan materiallarni taqqoslash, ularning ma’nosini izohlash va elektron lug‘atlar yaratish shevalarning kelajak avlodga yetkazilishiga xizmat qiladi.

Sheva va adabiy til munosabati: Muhokama jarayonida shevalar va adabiy til o‘rtasidagi munosabatga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Adabiy til ta’lim, ilm-fan, rasmiy muloqot va ommaviy axborot vositalarida umumiy aloqa vositasi vazifasini bajarsa, shevalar xalqning hududiy madaniyati va jonli nutq xususiyatlarini saqlaydi. Shu sababli shevalarni adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yish yoki ularni nutqning noto‘g‘ri shakli sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli emas. Aksincha, shevalarni o‘rganish adabiy tilning tarixiy manbalarini chuqurroq anglash va til boyligini kengroq o‘rganish imkonini beradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, shevalarni asrash - xalqning til boyligi, tarixiy xotirasi va ma’naviy merosini asrash demakdir.

1. Dialekt va shevalar — xalq madaniyatining muhim ko‘zgusi. Qashqadaryo va Surxondaryo shevalari xalqning tarixi, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi va milliy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ulardagi mahalliy so‘zlar, iboralar va xalq og‘zaki ijodi namunalari avlodlar tajribasini saqlashda muhim ahamiyatga ega.
2. Qashqadaryo va Surxondaryo shevalari o‘ziga xos til xususiyatlariga ega. Ushbu hududlar shevalarida talaffuz, lug‘at tarkibi va grammatik shakllar jihatidan o‘xshashliklar bilan birga, muayyan farqlar ham mavjud. Ularni qiyosiy o‘rganish o‘zbek tilining hududiy boyligini hamda xalq madaniyatidagi umumiylik va o‘ziga xoslikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

3. Shevalarni asrash va kelajak avlodga yetkazish zarur. Mahalliy so‘zlarni to‘plash, sheva lug‘atlarini yaratish, xalq og‘zaki ijodi namunalarini yozib olish va ta’lim jarayonida ulardan foydalanish shevalarning saqlanishiga xizmat qiladi. Shevalarni o‘rganish va qadrlash orqali milliy til boyligi, tarixiy xotira va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

2. To‘ychiyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. — Toshkent, 2004.

3. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. — Toshkent, 1969.

4. Rahimov S. O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika, leksika). — Toshkent: Fan, 1985.

5. Omonturdiyev A., Rahmonov B. Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati. — Toshkent: Ilm Ziyo Zakovat, 2019.

6. Raxmanov B., Boypo‘latova S., Qo‘ziboyeva S. Qashqadaryo va Surxondaryo qipchoq dialekt va etnografizmlarini yaxlit o‘rganish muammolari. — Modern Science and Research, 2023.

7. Jabborov X. Qashqadaryo shevalarining o‘rganilish tarixidan. — Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi, 2025.

8. O‘zbek dialektologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Y. Saidov. - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2022. - 74 b.

9. Sh. Usmonova. Lingvokulturologiya (Darslik) - T.2019

10. Robins R. General Linguistics._An Introductory survey. -London: Routledge,Bepeqarzn -p. 27.